

**“YAGONA DARCHA” BOJXONA AXBOROT TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Abdullayev Shaxzodbek

magistratura tinglovchisi

(Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti)

k.f.n., dotsent Abdug‘aniyev Baxtiyor

(Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti)

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi bojxona organlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, bojxona organlarida mavjud “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — BAT) ning raqamli iqtisodiyotda tutgan o‘rni hamda bugungi kunda tadbirkorlarni qo‘llab — quvvatlash sohasida ularga bir qancha qulayliklar yaratilganligi, bojxona amaliyotida “Yagona darcha” BAT bilan bog‘liq, masalalar va muammolarning yechimi batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari, tizimni takomillashtirish bo‘yicha dolzarb takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Raqamli iqtisodiyot”, “Yagona darcha” BAT, “Doing Business”, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti, ruxsatnoma hujjatlari, TIF qatnashchilari.*

Asosiy qism: Bugungi kunda, mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni talab etmoqda.

So‘nggi yillarda, O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko‘rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to‘siqlar bekor qilindi. Ko‘rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bunday ijobiy o‘zgarishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng e‘tirof etilmoqda. Jumladan, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e‘lon qilingan “Doing business — 2020”

hisobotida O‘zbekiston 69-o‘rinni egallab, islohotlar miqyosi va samaradorligi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli iqtisodiyot”ga kirib borayotgan va unda keskin rivoj topayotgan tashkilot va organlardan biri sifatida bojxona organlarini misol qilsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bojxona organlari faoliyatida mavjud avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining yaxlit majmuasi bojxona to‘lovlari undiruvchanligini oshirish, rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish, tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini tashkil etish, ehtimoliy xatoliklarni oldini olish va TIF qatnashchilariga qulayliklar yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi PQ-4297-son qaroriga asosan, 2020-yil 1-yanvardan ishga tushirilgan “Yagona darcha” BAT 6 ta organning 20 taga yaqin sertifikat va ruxsat berish tusidagi hujjatlarini olish uchun onlayn elektron murojaat etish va hujjatlarni raqamli formatda olish imkonini berar edi. Bugungi kunda tizimga jami 12 ta tashkilot integratsiya qilingan bo‘lib, 49 turdagi ruxsatnoma hujjatlari tizim orqali rasmiylashtiriladi. Raqamlarga ko‘ra, tizim joriy qilinganidan buyon hozirga kadar unda 60 mingdan ortiq TIF qatnashchilari ro‘yxatdan o‘tgan va vakolatli davlat organlari tomonidan 1,7 milliondan ortiq ruxsatnoma hujjatlari rasmiylashtirilgan. Bu esa tadbirkorlarning vaqti, xarajatlari va tonnalab qog‘ozning tejalishiga xizmat qilmoqda. Ushbu tizim Birlashgan millatlar tashkilotining Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va elektron ish amaliyotlari bo‘yicha markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Yagona darcha” mexanizmini yaratish bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar hamda mezonlariga javob beradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “Yagona darcha” mexanizmi bojxona organlari samaradorligini oshirishda global tendensiya hisoblanadi. Ortiqcha va uzoq bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlariga va bir nechta hujjatli talablarga nisbatan shaffoflikning yo‘qligi savdo qilish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar va vaqtni ortishiga sabab bo‘ladi. Ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish, tashki savdo samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulotni ishlab chiqishdan tortib, bozorga kirishgacha bo‘lgan vaqtni kamaytirish va jahon savdosining prognozligini oshirish uchun savdo-sotiqni osonlashtirishga erishish juda muhimdir.

“Yagona darcha” BAT TIF subyektlariga quyidagi imkoniyatlarni

yaratadi:

1) Import, eksport va tranzitga taaluqli barcha tartibga solish talablarini bajarish maqsadida standartlashtirilgan ma'lumotlar va hujjatlarni yagona o'tkazish kanalidan foydalangan holda taqdim etiladi;

2) Axborot almashinuvining maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy baza bilan mustahkamlagan xolda, tashqi savdo bitimlariga doir barcha axborotlarni almashish imkoniyati yuzaga keladi;

3) Bojxona xizmati, vakolatli organlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ruxsat etuvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning bosqichlarini masofadan kuzatish mumkin bo'ladi;

4) Barcha uchun ochiq bo'lgan elektron shakldagi ruxsat etuvchi hujjatlar reestrlarini yuritishga to'liq o'tiladi;

5) O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlardagi epizootik, karantin va fitosanitariya holatlari to'grisidagi ochiq ma'lumotlarni eng so'nggi ko'rsatkichlar holatida ushlab turiladi;

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Yagona darcha" BATning vujudga kelishi barcha ishtirokchilar o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvini ta'minlagan holda, mamlakatda iqtisodiy integratsiyasini oshiradi. Bu esa tovarlar bojxona rasmiylashtiruvining tezkorligi va savdoni yengillashtirishga turtki bo'ladi. Bunday mexanizmni qo'llash, rasmiy nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirishga va resurslardan unumli foydalanish davlat organlari va TIF ishtirokchilari uchun xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Shunday qilib, "Yagona darcha" BATni amalga oshirish orqali samarasiz, ortiqcha nazorat funksiyalari va tartibga solish organlari faoliyatida byurokratik to'siqlarni kamaytirish, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi bo'ylab tovar va transport vositalari harakati uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, bojxona va boshqa operatsiyalar uchun minimum vaqt sarflash, operatsiyalarni avtomatlashtirish, shuningdek, xalqaro normalar va standartlarga mos yangi ish usullari, xorijiy mamlakatlar eng yaxshi amaliyot tajribalarini o'zimizga tadbiq etishga erishamiz.

Taklif:

Tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulayliklar yaratish xamda tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruviga oid fikrlarini ijobiy tarafga o'zgartirish maqsadida, sertifikatlashtirish idoralari tomonidan:

1. Bir-birini takrorlovchi xususiyatga ega ruxsatnoma hujjatlarini optimallashtirish, ya'ni sonini qisqartirish;

2. Ruxsatnoma hujjatlarini yo'laklar orqali rasmiylashtirish, xavfni boshqarish tizimi orqali tadbirkorlarni "Qonunga itoatkorlik", tovarlarni "Xavflilik darajasi" tamoyili asosida ajratish;

3. Ruxsatnoma hujjatlariga to'lov stavkalarini optimallashtirish, xar bir tovar turi bo'yicha xizmatlar narxini ochiq ma'lumotlar portalida ma'lum qilish, elektron hisoblash va ko'rish imkoniyatlarini yaratish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (20.01.2016y. O'RQ-400)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4297-son qarori (23.04.2019)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4525-son qarori (20.11.2019)

4. UN/CEFACT va UNECE rasmiy veb-sayti:
<https://unece.org/trade/uncefact>

5. <http://www.consultant.ru>

6. <http://www.garant.ru>

7. <http://www.singlewindow.uz>

8. <http://www.wcoomd.org>